



# TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



## INGLIZ TILINI IKKINCHI TIL SIFATIDA O‘QITISHDA INTERFAOL O‘YINLAR VA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

**Xudoyberdiyeva Sevinch Baxtiyor qizi**

*Sharqshunoslik university*

*Magistratura 1-kurs: xorijiy til va adabiyot yonalishi*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda globalizatsiya jarayonlari natijasida ingliz tilini o‘rganishga bo‘lgan ehtiyoj ortib bormoqda. Ingliz tili nafaqat xalqaro muloqot, balki ilm-fan, texnologiya va biznes sohalarida ham asosiy aloqa vositasi hisoblanadi. Shu sababli, ingliz tilini samarali o‘rgatish usullari doimiy ravishda rivojlanib, yangilanib bormoqda. Ushbu jarayonda interfaol o‘yinlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning til o‘rganish jarayonini qiziqarli va samarali qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Kalit so‘zlar:** ingliz tili, o‘qitmoq, interfaol o‘yinlar, texnologiyalar.

Interaktiv metodlarning an'anaviy metodlardan farqi shundaki ,interektiv metodlar óquvchining mustaqil holda erkin fikr yuritishi va o‘qituchiga hamkor sifatida ishlashiga qaratilgan metoddir.An'anaviy metodlar esa o‘quvchining faktlarni esda saqlash qobiliyati va uning hajmiga qaratilgan metodir.Ushbu faktlarni quyidagi jadvalda kuzatish mumkin.

Interektiv lotincha so‘z bo‘lib o‘zi faoliyat yurituvchi degan ma’noni anglatadi. Zamonaviy texnologiyalar til o‘rganishning mustaqil fikrlashi va nutq yuritishiga qaratilagan metod ekanligiga amin bo‘ldik. Ma’lum bo‘lishicha ,zamonaviy texnologiyalar asosida o‘tiladigan Britaniya universitetlarida talabalar dars maqsadi va vazifalarini o‘zlari belgilashadi va o‘zlari tanlagan mavzu bo‘yicha bahslashib ,xulosalar chiqarishadi .Ko‘rinib turibdiki ,dars jarayonida o‘quvchilar tashkilotchi ya’ni lider vazifasini bajarishmoqda.Shunday qilib til o‘rganuvchinin mustaqilligini ta’minlash, ularning tilni puxta egallashi va erkin nutq yurita olishi bilan belgilanadi.Buni quyidagi ko‘rsatmalar orqali ko‘rsatish mumkin.

Interfaol o‘yinlar o‘quv jarayoniga o‘quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. O‘yinlar orqali o‘quvchilar nafaqat yangi so‘zlarni va grammatik qoidalarni o‘rganadilar, balki ularni amalda qo‘llashni ham o‘rganadilar. Masalan, "Kahoot", "Quizlet", "Duolingo" kabi platformalar o‘quvchilar uchun qiziqarli va interfaol darslarni tashkil qilish imkonini beradi.

Zamonaviy texnologiyalar ingliz tilini o‘qitishda yangi imkoniyatlar yaratadi. Masofaviy o‘qitish platformalari (Zoom, Microsoft Teams) yordamida darslarni onlayn o‘tkazish, audiovizual materiallardan foydalanish (YouTube, TED Talks) orqali eshitish va tushunish ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkin. Shuningdek, virtual haqiqat (VR) va kengaytirilgan haqiqat (AR) texnologiyalari orqali o‘quvchilarni turli vaziyatlarga "sho‘ng“itish" va til muhitini yaratish mumkin





## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



TADQIQOT METODIKASI Kompyuterda nazorat kabi ishlar osonlikcha olib boriladi va guruhdagi til o‘rganuvchi soni bilan bog‘liq ayrim tashkiliy muammolarni yechadi.Kompyuter ta’lim jarayonida an shunday imkoniyatlarni vujudga keltiradi .Shuning uchun ham ,ta’lim jarayonida kompyuter bilan ishlash qulayliklarini yaratish va uni o‘quv rejasiga kiritish kabi muammolarni yechishda qiyinchilikarni yengishimiz zarur. Multimedia xonalari til o‘rganuvchiga video va audio konferensiylarida ham ishtirok etish imkoniyatini yaratdi. Har bit o‘quvchi o‘zining kompyuterida ishlab turib, biron bir mavzu yuzasidan konferensiya o‘takazadi. Multimedia xonasidan foydalanish til o‘rgatishning hamma bosqichlarida samaralidir. Hozirgi kunda ingliz tilini kompyuter yordamida o‘grayish texnologiya emas balki "san‘at" bo‘lib qolmoqda.Lekin bu holni o‘zgartirish zarur ,ya’ni ingliz tilini kompyuter orqali o‘rgatish "san‘at"emas , balki texnologiya bo‘lishi kerak.

**TAHLIL VA NATIJALAR** Shuni aytish mumkinki hozirgi kunda o‘quvchilarni zamonaviy pedagogik texnologiyalar ya’ni interaktiv metodlar asosida o‘qitish dolzarb masalaga aylangan.Interaktiv metodlarning an'anaviy metodlardan farqi shundaki bunda o‘quvchining o‘zi mustaqil holda erkin fikr yuritadi ,o‘qituvchi bilan hamkorlikda ishlaydi.An'anaviy metod esa o‘quvchining faktalarini esda saqlash qobiliyati va uning hajmiga asoslanadi. An'anaviy ta’lim metodlari bugungi kunda kamchiliklarga ham egaki bu o‘quv jarayonida noan'anaviy ta’lim metodlarlarini qo‘llash extiyojlarini paydo qiladi. Bu kamchiliklar quyidagilardir:

- O‘quvchilar passiv ishtirokchilar bo‘lib qoladilar, dars mashg‘ulotlari markazida hamda asosiy boshqaruvchilik rolida o‘qituvchining turganiligi bunday passivlikka olib keladi.
- O‘qituvchining to‘la nazorati barcha o‘quvchilar uchun motivatsiyani vujudga keltiramaydi. Chunki o‘quvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan barcha xattiharakatlar qat‘iy talab asosida sodir bo‘ladi.Bu o‘quvchida ijodiy tashabbusni uygotmaydi.
- Eslab qolsih darajasi hamma o‘quvchilarda bir hil bo‘lmasligi sababli ,sinf bo‘yicha o‘zlashtirish darajasi past bo‘lib qolishi mumkin.Ya’ni,an'anaviy ta’limda mashg‘ulotga va bilish jarayoniga o‘quvchilarni qiziqtiruvchi har xil usulblarni, xotirani mustahkamlovchi o‘yinli texnologiyalarni qo‘llash imkoniyatlardan foydalansamasligi mazkur oqibatlarni keltirib chiqaradi.

**Xulosa** Umuman olganda, ingliz tilini ikkinchi til sifatida o‘qitishda interfaol o‘yinlar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish o‘quv jarayonini samarali, qiziqarli va interfaol qiladi. Ushbu usullar o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi va ularga haqiqiy hayotda tilni qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.



## TANQIDIY NAZAR, TAHLILYI TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ismatullayeva, N. R. (2021). On the Introduction of E-Learning Portfolio in the Educational Process. *Current Research Journal of Pedagogics* (2767-3278), 2(09), 35-37.
2. Ismatullayeva, N. R. (2022). POSSIBILITIES OF USING THE INTERACTIVE BOARD IN FOREIGN LANGUAGE LESSONS.«. O ‘zbekiston-Xitoy: Tarixiy-Madaniy, 77.
3. Ислатуллаева, Н. Р. (2022). ЧЕТ ТИЛИ ДАРСЛАРИДА ИНТЕРАКТИВ ДОСКАДАН ФОЙДАЛАНИШ ИМКОНИЯТЛАРИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 26), 96-98.
4. Ismatullayeva, N. R. (2022). Teaching Translation Methodology in the Foreign Language Classes. *International Journal of Social Science Research and Review*, 5(12), 448-452.
5. Ismatullayeva, N. (2022). CHET TILIGA O ‘RGATISHDA TARJIMANI O ‘QUV JARAYONIDA QO’LLASH MASALASI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 28), 224-229.

